
“Yoshlar daftari” imkoniyatlar daftari

Qo’shtepa tumanidagi “G’ishtmon” mahallasida yashovchi Sirojiddin Alijonov “Yoshlar daftari”da turar edi. 2022 yilda unga subsidiya asosida tikuv mashinasi olib berildi.

“Yigit kishiga ham tikuv mashinasi beriladimi?” deb ajablanmang, chunki Sirojiddin o’ziga berilgan mehnat qurolidan maqsadli foydalanib, turmush o’rtog’i Muniraxon bilan birgalikda tikuvchilik faoliyatini yo’lga qo’ydi.

Muniraxon dastlab subsidiyaga berilgan tikuv mashinasida ish boshlagan bo’lsa, bugunga kelib faoliyatini yanada kengaytirdi, qolaversa oilaviy daromadlari ham oshib bormoqda.



2024-10-23 08:43:48